



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI (2021- yil yanvar-mart oylari uchun, dastlabki ma'lumotlar)

Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra **1927,5** ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan **3,8** ming kishiga yoki **0,2 %** ga ko'paydi. Jumladan shahar aholisi soni **944,5** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,0 %**), qishloq aholisi soni **983,0** ming kishi (**51,0 %**)ni tashkil etdi.



Shahar joylarda
944,5 ming kishi




Doimiy aholi soni
1927,5 ming kishi




Qishloq joylarda
983,0 ming kishi

Shahar va qishloq aholisining jami aholi sonidagi ulushi, % da



Erkaklar va ayollar sonining jami aholi sonidagi ulushi, % da






QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

Doimiy aholi sonining tuman (shahar) lar bo'yicha taqsimlanishi
(1-aprel holatiga ko'ra, ming kishi)





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar
(yanvar-mart oylari uchun,)

	2020- yil	2021- yil
Doimiy aholi soni	1903,9	1 927,5
Tug'ilganlar	8,3	8,0
Vafot etganlar	1,9	2,1
Aholining tabiiy o'sishi	6,4	5,9
Kelganlar	2,5	4,8
Ketganlar	3,3	6,8
Migratsiya saldosi	-0,8	-2,0
Tuzilgan nikohlar, birlik	3678	4243
Nikohdan ajralishlar, birlik	354	317


1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille

tug'ilish	17,5	16,8
o'lim	4,0	4,4
aholining tabiiy o'sishi	13,5	12,4
tuzilgan nikohlar	7,8	8,9
nikohdan ajralishlar	0,7	0,7

Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-mart oylarida **8,0** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (*bu yerda va keyinchalik tirik tug'ilganlar inobatga olinadi*), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **16,8** promilleni tashkil etdi hamda 2020-yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega kamayganligi kuzatildi (2020- yilning yanvar- mart oylarida 17,5 promille bo'lgan).

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mayjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Tuman (shahar)lar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti
(2021- yilning yanvar-mart oylarida)**






QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI


STATISTIKA BOSHQARMASI

Vafot etganlar. 2021- yilning yanvar-mart oylarida **2,1** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etdi hamda 2020-yilning mos davriga nisbatan **0,4** promillega o‘sganligi (2020- yilning yanvar- mart oylarida 4,0 promille bo‘lgan) kuzatildi.

Tuman (shahar)lar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti
(2021- yil yanvar-mart)



Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2021-yil yanvar- mart holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)



2021-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 58,9 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 11,5 %i - o'simtalardan, 7,8 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,8 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,4 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,2 %i – yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,4 %i – boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 64,0 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 11,0 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 14,0 %i - tug'ma anomaliyalardan, 3,0 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,0 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan va 4,0 %i – boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Tabiiy o'sish. 2021- yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 5,9 ming kishini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,5 ming kishiga (2020- yilning yanvar-mart oylarida 6,4 ming kishi bo'lgan) kamaygan.

Tabiiy o'sish — 5,9 ming kishi



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha nikohlar soni
(yanvar-mart oylari uchun, birlik)




Tumanlar kesimida nikoh tuzganlik koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-mart oylari uchun, 1000 aholiga nisbatan)





Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida eng yuqori nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) Nukus shahrida (10,0), Kegeyli (12,5), Nukus tumanida (11,0) va Qo'ng'iroq (10,1) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) Beruniy (7,7), Taxiatosh (6,7), Shumanay (6,6), va Mo'ynoq (6,1) tumanlarida kuzatildi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-mart oylari uchun, birlik)





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI


STATISTIKA BOSHQARMASI

Tumanlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-mart oylari uchun, 1000 aholiga nisbatan)



Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida eng yuqori nikohdan ajralish koeffitsiyenti (promille) **Kegeyli** (0,9), **Qo'ng'iroq** (0,9), **Xo'jayli** (0,9) va **Nukus** (0,9) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida eng kam nikohdan ajralish koeffitsiyenti (promille) **Beruniy** (0,5), **Qonliko'l** (0,5), **Taxiatosh** (0,3) va **Bo'zatov** (0,2) tumanlarida kuzatildi.



Migratsiya. 2021- yil yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4751 kishini tashkil etdi.

2021- yil yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha ko'chib ketganlar soni 6833 kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosi. 2021- yil yanvar-mart oylarida migratsiya saldosi minus 2082 kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 799 kishi bo'lgan.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI



Aholi migratsiyasi (kishi)

	2020 yil yanvar-mart	2021 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	2500	4751
Ko'chib ketganlar	3299	6833
Migratsiya saldosi	-799	-2082

2020- yil
yanvar-mart



2021- yil
yanvar-mart



➡ Ko'chib kelganlar ➡ Ko'chib ketganlar ➡ Migratsiya saldosi





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

Tuman (shahar)lar kesimida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni (2021- yil yanvar-mart uchun, kishi)

	Ko‘chib kelganlar soni	Ko‘chib ketganlar soni	Migratsiya saldosи
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 751	6 833	-2 082
Nukus shahri	1 385	1 108	277
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	121	340	-219
Beruniy	94	201	-107
Bo‘zatov	533	307	226
Qorao‘zak	69	294	-225
Kegeyli	716	502	214
Qo‘ng‘irot	129	373	-244
Qonliko‘l	125	192	-67
Mo‘ynoq	129	67	62
Nukus	246	315	-69
Taxiatosh	197	296	-99
Taxtako‘pir	58	178	-120
To‘rtko‘l	184	246	-62
Xo‘jayli	316	535	-219
Chimboy	165	1 356	-1 191
Shumanay	110	228	-118
Ellikqal‘a	174	295	-121



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI



Poytaxtdagi demografik holat

Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- aprel holatiga **325,1** ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan **1,3** ming kishiga yoki **0,4 %** ga o'sgan.

2021- yilning yanvar-mart oylarida Nukus shahrida **1346** bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan **16,8** promilleni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan **1,0** promillega (2020- yilning mos davrida **17,8** promille bo'lgan) kamaygan.




Nukus shahrida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar



Nikoh. FHDYO organlarida 2021- yilning yanvar-mart oylarida **797** ta nikohlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti **10,0** promilleni tashkil qilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **3,4** promillega ko'paydi (2020- yilning mos davrida **6,6** promille bo'lgan).

Nikohdan ajralishlar FHDYO organlarida 2021- yilning yanvar-mart oylarida **56** ta nikohdan ajralishlar qayd etildi va 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti **0,7** promilleni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **0,3** ga kamaydi. 2020- yilning mos davrida **1,0** promille bo'lgan.



Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasining
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi
Tel: (61) 224-92-17 (61) 222-76-57



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI